

Morfema va uning turlari

Do'smatova Lobar

Erdanova Xurshida

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tilyo'nalishi talabalar

Anatatsiya: morfema yunoncha tildan olingan, morfemaning turlari , so'z yasovchi morfemalar, morfema termini haqida, so'z shaklini hosil qiluvchi .

Kalit so'z: affikslar, leksemalar, asos va qo'shimchalar, agglutinative tillar,flektiv tillar.

Morfema yunoncha morpheme-shakl, o'ziga xosshakl va ma'noga ega bo'lgan, boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan, so'z (leksima) yasash yoki so'zning shaklini hosil qilish uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik. Morfemalar o'zbek tilida , asosan, affiks (qo'shimcha) holatida bo'ladi. Masalan, -chi (kurashchi), -shunos (siyosatshunos), -q (taroq), -ki (tepki), -li (aqilli), -chan (ishchan), -la (tuzla), -illa (taqilla), -lar (bolalar), -rok (kattaroq), -mtir (qoramtiler) va hokazo. Morfemalar asosiy vazifasiga ko'ra 2 turga bo'linadi: so'z yasovchilar, so'zning shaklini yasovchilar . So'z yasovchi morfemalar yangi-yangi leksemalar hosil qilish uchun qo'llaniladi va o'zbek tilining lug'at qatlaming boyishida muhim rol o'yndaydi. So'z shakli hosil qiluvchi morfemalar so'zning qo'shimcha ma'no yuklaydi. Masalan, daraxtlar (daraxt so'zining ko'plik shakli), balandroq (baland so'zining daraja shakli), sarg'ish (sariq so'zining ozaytirma shakli), keldim (kel fe'lining o'tgan zamon birinchi shaxs birlik shakli) va boshqa morfemalar mustaqil qo'llanmaydi, lug'aviy ma'no ifodalay olmaydi, faqat so'zning lug'aviy va grammatik ma'nolari shakllanishiga xizmat qiladi. So'z tarkibida morfema ishtirok etmasligi ham mumkin. "Morfema" termini va

tushunchasini tilshunoslikka polyakrus tilshunosi I.A.Boduen de Kurtene kiritgan.

Morfema so‘zning eng kichik ma’noli qismi hisoblanadi. Morfema asos (yetakchi morfema) va qo‘sishimchalar (ko‘makchi morfemalardan) iborat. Qo‘sishimcha (ko‘makchi morfema) mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib faqat vazifa bajaradigan qismdir. Asos (yetakchi morfema) so‘zda, albatta, ishtirok etadigan, so‘zning asosiy ma’nolarni ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi ya’ni so‘zning tub ma’noli qismidir. Ko‘makchi morfema vazifasiga ko‘ra 2 xil bo‘adi.

So‘z yasovchi morfemalar – asosga qo‘shillib yangi ma’no hosil qiluvchi qo‘sishimchalar .

Shakl yasovchi morfemalar –asosga qo‘shillib uninf ma’nosiga qo‘sishimcha ma’no yuklash yoki o‘zi qo‘shillayotgan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi qo‘sishimchalar. So‘zni morfemaga ajratishda har doim asosning ma’nosi e’tiborga olinadi. Morfemalar turli tillar kesimida Agglutinativ tillar va Flektiv tillar. Agglutinativ tillar bu guruhga turkey tillar,Osiyo va Afrika ko‘pgina tillar kiradi. Bu tillarda so‘zlarda sintaktik bog‘lanishda o‘zak, negizi o‘zgarmasdan to‘g‘ridan –to‘g‘ri qo‘shilib kelaveradi. Flektiv tillar bu guruhga Hind-Yevropa tillar oilasi kiradi. Ularga Grammatik ma’noni ifodalovchi affikslar so‘z o‘zagi bilan juda zich birijib ketadi. Bu hodisa Fuziya deyiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbek tili grammatikasi. G‘. Abdurahmonov 1972-610 b.
- 2.Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek tili. Morfemika. Qarshi-2005
- 3.O‘zbekiston molliy ensiklopediyasi (2000-2005)
- 4.Tilshunoslikka kirish. Qo’llanma. Xolmonova Z.T 2000

5. Tilshunoslikga kirish. M.Irisqulov 1992 Indiana Universiteti